

“MUFRADOT” - MUAMMO JANRIGA BAG‘ISHLANGAN ASAR

Axanova Nazokat Axmedovna

Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar fakulteti O‘zbek tili va adabiyot sirtqi ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7543496>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola Alisher Navoiyning muammo janriga bag‘ishlab yaratilgan “Mufradot” asarining o‘ziga xos xususiyatlari hamda ushbu janrning ifoda shakllari haqida bo‘lib, yechimning topilishi, harfiy san’atlarning janrda tutgan o‘rni haqida fikr yuritilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Strukturaviy birlik, tamsiya talmeh, tabdil, yechim

Ma’lumki, bugungi O‘zbek adabiyoti tarixiy shakllanish bosqichlarini boshdan kechirgan. Bu borada mumtoz adabiyotimiz vakillarining jumladan-Alisher Navoiy hazratlarining o‘rni beqiyosdir, deyish mumkin. Mumtoz adabiyot namunalarini bugungi kunda ham keng jamoatchilik e’tiborida bo‘lib kelayotgan ekanligi o‘tgan davr ijodiy salohiyatining yuksak ekanligini bildiradi. “Alisher Navoiy qoldirgan ulkan adabiy ilmiymerosnafaqato‘zbekadabiyoti, balki, jahonadabiyotivama’naviy-ma’rifiytaraqqiyotiningkattabirasosinitashkilqiladi”¹. Alisher Navoiy qalamiga mansub “Mufradot” asari janrlardan muammo janriga ba‘ishlangan asar sanalib, bugungi kunda ham ijtimoiy ham adabiy-ilmiy jarayonda keng tahsinlarga sazovor bo‘lmoqda. A.Navoiy “Mufradot” asarining davr va xususiylik, umumiylik tamoyillariga muatanosib yaratilishi adabiyot sohasi vakillari olamida o‘chmas iz yang‘lig‘ jaranglaydi. “Mufradot” asari o‘z davrining g‘oyat serjilva janrlaridan sanalga muammo janriga atalgan bo‘lib, unda o‘sha davr she’riyatini mukammal tushunish, muammo yaratishning adabiy qonuniyatlari, muammo janriga xos bo‘lgan badiiy san’atning turlari va qolaversa, muammoning yechilish qonuniyatlari yuzasidan nazariy qarashlar o‘z tasdig‘ini topgan. “Mufradot” asari shunchaki umumiy bir janrga asoslangan asargina hisoblanib qolmasdan, jahon adabiyotiga muammo janriga muvofiq keluvchi san’atlar bilan o‘xshash taraflari, farqli jihatlari hamda yaratilish uslubining turli komponentlardan iborat ekanligi bilan ajralib turadi. Bunda jahon adabiyotining yashiringan imzo, Anogramma, akrostix va boshqa nomlar bilan yuritiluvchi harfiy o‘yinlar san’atining tutgan o‘rni haqida turli nazariy qarashlar yuritilgan. Alisher Navoiyning muammo janriga bag‘ishlangan “Mufradot” asarida muammoning yechimi sifatida ko‘p hollarda arab alifbosiga asoslangan eski

¹ Qarshiyeva Shohsanam Abdurashidovna “Alisher Navoiy muammolarida shakl va mazmun masalasi”. Maqola. “The innovator in science – 2022”

o'zbek yozuvi harflari asnosida yuzaga kelishi tadqiq etiladi. "Umumiy qilib aytganda dunyo hamjamiyatining muammo janrini ikki toifaga bo'lishi, bular:

1.Topishmoqlar;

2.Asarlarda hahrflarning yashirilishi

kabilarga bo'linishi yuzasidan, Navoiy yashab turgan muhit va ijtimoiy ong shaklidan kelib chiqib muammo janrining ikkinchi toifasiga muvofiq keluvchi janrning amaliy natijalariga muvofiq o'zining "Mufradot" asarini yaratgan"².

Bugungi kunda muammo janrining yaratilish tarixi, janrdagi o'zgarishlar va mohiyatning saqlanib qolinishi, strukturaviy jihatdan yechimning turlicha ifoda shakllari keng jamoatchilik tomonidan muhokamalarga sazovor bo'lmoqda. Bu borada Fransuz olimi Remix Dorning "Alisher Navoiy muammolari" asarining Parijda chop etilishi ahamiyatlidir. "Mufradot" asrida muammo janrining ifodaviy shakllari, shu bilan birgalikda ushbu janrning strukturaviy yechimlariga alohida to'xtalib o'tiladi. Bunda muammoning amallari hamda "A'moli tahsiliy"(hosil qilish amallari) yo'nalishlar yuzasidan ifodalanayotgan fikrning yechimga ishorat qilinishi. Misol uchun muammoning yechimi arab harflariga muatanosib bo'lsa yechimning ishoraviylikka tayanilib topilishida ma'lum do'zning avvalgi harflarga dalolat qiluvchi so'zlar bilan ifodalanishi o'rinlidir. Alisher Navoiy muammo janrining amaliy ifodasini tahlil asnosida yuzaga keltirishni ta'kidlaydi, bunga sabab yechimning ramziylik, ko'p ma'nolilik, shakliylik xususiyatlaridan kelib chiqib muammolik ma'nosining ma'lum qismlarda ifodalanishiga ishora qilishi tahlilda namoyon bo'lishini unutmaslik, yechim topishda chalg'imaslikni uqtiradi.

Navoiyning muammo janriga qo'shgan hissasi shuki, bugungi kunda ham muammo janrining to'liq va aniqlikka yo'g'rilgan holda o'z tasdig'ini topib kelmoqda. Muammoning o'rganilishi davomiyligida tarkib, tabdil, tamsiya, talmeh va boshqalarga e'tiborli bo'lishlik, qolaversa muammoning shartli ravishda qanday yo'nalishda ifoda etilayotgan ekanligini anglab yetmoq lozim. Talmeh - muammo janrida asosan ilm-u fanda mashhur kishilarning harfiy san'atga muvofiq tarzda chalg'ituvchilik salohiyatini qo'llagan holda amalga oshiriladi. Tamsiya esa muammoning o'rganilishidan so'ng taxmin qilinayotgan yechimga muvofiqlikni yuzaga keltirishda Nazmiy harf bilan ishorat qilish asnosida harf nomi aslida esa shu harf bilan boshlanuvchi ismga ishorat beriladi.

²Yorqinoy Nasriddinova Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi "Mufradot" ning fransuzcha talqini

Muammo janrining o'ziga xosligini ochib berishda Navoiyning "Mufradot" asari alohida ahamiyat kasb etadi. Muammoning yechilishiga chalg'ituvni yuzaga keltirishda tabdil va tarkib umumiylikka tayanadi. Bunda muammoning yechilish tarkibida maqsad so'z bo'lmagan holda ma'noning anglashinuvi, tabdilda esa yechim sifatida topilgan so'z, (aslida)harfning mutloq olinmasdan boshqa mutanosib harflarga almashtirilishiga e'tiborda bo'lishlik anglashiladi. Bundan tashqari muammo janri tarkibida raqamli uslub ham mavjud bo'lib, mavjud muammoning yechimi harflargina sanalмай, ma'lum raqamlarga ham ishorat bo'lishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiyning "Mufradot" asari muammo janrining yaxlit va to'liq tarkibda bugungi kunga qadar yetib kelishida asosiy manba sanalib, ushbu janrning ifodalanish shakllari, mavjud muammoning yechilish unsurlarining o'ziga xosligi bugungi kunda ham ahamiyatlidir. "Mufradot" asari orqali muammo janrining sintaktik tuzilishi, imkoniyatlari va qolaversa, janrning o'ziga xosligini jahon adabiyoti muammo janrlariga mutanosib keluvchi vositalar bilan taqqoslab o'rganish yuksak ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Qarshiyeva Shohsanam Abdurashidovna "Alisher Navoiy muammolarida shakl va mazmun masalasi". Maqola. "The innovator in science – 2022"
- 2.Yorqinoy Nasriddinova Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi "Mufradot"ning fransuzcha talqini
3. www.talab.uz